

TIBBIY XODIMLARNI OIV INFESIYASI BILAN ZARARLANISHINI
EPIDEMIOLOGIK BAXOLASH

Ibragimov Parvizjon Sobirovich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti

Tastanova Gulchexra Yeshtayevna

t.f.d., dotsent. Samarqand Davlat tibbiyot universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18629777>

Annotatsiya. Maqola tibbiyot xodimlari o'rtasida OIV infeksiyasidan kasallanish holati, yuqish yo'llari va profilaktika ishlarini tashkil etishning dolzarb muammolari to'g'ridagi ma'lumotlarni o'rganishga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: OITS, OIV infeksiyasi, OIV bilan zararlangan shaxslar, tibbiy va notibbiy avariylar, kasbiy zararlanish, muloqatdan keyingi profilaktika, ARVT.

Masalaning dolzarbligi. OIV infeksiyasini populyatsiyada keng tarqalganligi va barqaror o'sishi zamonaviy tibbiyotning dolzarb va jiddiy muammolaridan biridir. Hozirgi vaqtda jahonda 45 mlndan ortiq shaxs OIV infeksiyasi bilan yashamoqda, yiliga 1.7 mln. dan ko'proq shaxs OIV infeksiyasi bilan ro'yxatga olinmoqda. Ushbu kasallik O'zbekiston axolisini ham chetlab o'tmagan, OIV infeksiyasi bilan yashayotgan shaxslar 65000 nafardan ko'p kishini tashkil etmoqda, shu jumladan yuqoridagi kasallik xolatlari Samarqand viloyati axolisi orasida xam 4200 nafardan ortiqdir. Tibbiy xodimlar o'rtasidagi OIV infeksiyasi bilan ro'yxatga olinganlar soni 53 nafarga yetdi.

Tadqiqotning maqsadi: Samarqand viloyati misolida tibbiy xodim-larning OIV infeksiyasi bilan zararlanishini(2005-2021 yillarda) taxlil qilish va profilaktik tadbirlarni tadbik etishga yo'naltirilgandir.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tibbiy xodimlar to'grisidagi ma'lumotlar va tadqiqot ishlari Samarqand OITSga qarshi kurashish markazida olib borildi. Tadqiqot ma'lumotlari yillik yakuniy xisobotlarga asoslanildi va tibbiy xodimlar orasida OIV infeksiyasini qayd etilishi kuzatilib, taxlil qilib borildi.

Tadqiqot natijalari: Viloyatda 38000 dan ortiq tibbiy xodimlar faoliyat ko'rsatmoqda, shulardan 53 nafari (0,14%) OIV infeksiyasi bilan zararlangan.

OIV infeksiyasi bilan zararlanganlarning 16,98% (9 tasi) ni vrachlar, 49% (26 tasi) ni o'rta tibbiyot xodimlari 33,9% (18 tasi) ni kichik tibbiyot xodimlari tashkil etgan. Shuning uchun tibbiy xodimlar juda extiyotkorlik bilan ishlashi yoki har bir mijozni OIV infeksiyasi bilan og'rigan shaxs sifatida qabul etishlari kerak.

OIV infeksiyali shaxslar jarroxlar, stomatologlar, ginekologlar, qon va biologik suyuqliklar bilan ishlovchi tibbiy xodimlar uchun katta xavf tug'diradi (3). Yuqish xavfi tibbiy xodimlar texnika xavfsizligini saqlamagan xollarda, tibbiy avariya xolatlarida, biologik suyuqliklar va o'tkir kesuvchi tibbiy jixozlar bilan ishlashda ro'y beradi.

Shuni alohida takidlash lozimki, ko'pchilik holatlarda tibbiy xodimlar OIV infeksiyasi bilan zararlanib qolishi, ularning ushbu infeksiya haqida bilimlarining pastligi va muloqotdan keyingi profilaktika tadbirlarini yaxshi bilmasligi tufaylidir.

OIV infeksiyasidan tibbiy xodimlarni himoya qilishda maxsus va maxsus bo'lmagan muxofaza etish usullari mavjud.

Maxsus profilaktika usullari: OIV infeksiyasida profilaktik tadbirlarning maxsus usullari, jarroxlik va qon maxsulotlari bilan ishlash jarayonida tibbiy avariya xolatlari ro'y

berganda amalga oshiriladi Bunday holatda tibbiy xodim antiretrovirus preparatlarini 2 soatdan 72 soat oraligida kechiktirilmasdan standart sxema asosida qabul qilishi lozim.

Muloqatdan keyingi profilaktika(MKP) tadbirlari tibbiy xodimga vaqtinchalik kuzatuv kartasi orqali olib boriladi va unga barcha laboratoriya tekshiruvlari natijalari, rozilik xati, MKP uchun beriladigan dorilar nomi, miqdori ko'rsatiladi. MKPning davomiyligi 4 hafta (28 kun)ni tashkil etadi.

Muloqatdan keyingi profilaktika kursi qo'yidagi sxema asosida olib boriladi:

- Lopinavir/ritonavir 2 tabletkadan 2 maxal bir kunda+zidovudin/lamivudin 1 tabletkadan 2 maxal bir kunda beriladi.

-Zidovudin 300 mg dan sutkasiga 2 martadan ovqatlanish paytida ichiladi.

- Atazanavir (ATU) 300 mg dan 1 marta ovqatlanish paytida ichiladi.

- Agar yukoridagi dorilar bulmasa, joyida bor bulgan antiretrovirus dorilar: timazid (zidovudin), epivir (lamivudin) kabi dorilar ishlatiladi (6.).

Muloqatdagi tibbiy xodimlar albatda «Viloyat OITSga qarshi kurashish markazi»ga qisqa vaqtda uchrashishi va OIV infeksiyasiga tekshirilishi lozim.

O'tkazilgan tadqiqot bo'yicha berilgan tavsiyalar:

1. Barcha tibbiyot xodimlarini havfsiz in'eksiya tomoillari asosida o'qitish;

2. Tibbiyot xodimlarini tibbiy avariya turlari, kelib chiqish sabablari, tibbiy avariya holatlarida mahsus profilaktika kursini o'tkazish qoidalariga rioya qilish bo'yicha bo'yicha bilim saviyasini oshirish.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Бакиров, А. А., & Зайдуллаева, М. О. (2025). РОЛЬ ПРАВИЛ ГИГИЕНЫ ДЕТЕЙ ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА В БОРЬБЕ С ВИРУСНЫМ ГЕПАТИТОМ А. *Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии*, 8(3), 274–276. извлечено от <https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1626>
2. Бакиров, А. А., & Каллиева, Т. А. (2025). ПАРАЗИТАРНЫЕ ИНФЕКЦИИ У ДЕТЕЙ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ОРГАНИЗМ РЕБЕНКА. *Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии*, 8(3), 264–266. извлечено от <https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1623>
3. Бакиров А.А. (2025). МЕРЫ БОРЬБЫ С ТУБЕРКУЛЕЗОМ И ЭПИДЕМИОЛОГИЧЕСКИЙ КОНТРОЛЬ ЗА ЗАБОЛЕВАНИЕМ. *Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии*, 9(4), 78–82. извлечено от <https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1992>
4. Berdiyarova, Sh. Sh., & Bakirov, A. A. (2024). Respiratory Organs Clinical Laboratory Diagnostics: Literature Review. *Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing*, 2(10), 154–161.
5. Bakirov, A. A. (2024). Epidemiology of Hymenolepidosis and Improvement of Its Prophylaxis Measures. *Journal of New Century Innovations*, 64(2), 107–110.
6. Bakirov A.A. / 2024 -yilda Samarqand viloyatida mehnat migrantlari orasida OITV infeksiyasi tarqalishini tahlil qilish *Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии* ВЫПУСК 3 (№8) 2025 год <https://tbcenter.uz/> 225-228.
7. Маматкулов, Т. Т., & Атаханова, Д. О. (2025). КОКЛЮШ: ПРИЧИНЫ, РАСПРОСТРАНЕНИЕ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ПРОФИЛАКТИКИ. *Вестник*

Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии, 8(3), 258–260. извлечено от <https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1621>

8. Маматкулов, Т. Т., & Коянбаева, С. К. (2025). РАСПРОСТРАНЕНИЕ ЭНТЕРОБИОЗА СРЕДИ ДЕТЕЙ И ЭФФЕКТИВНЫЕ МЕТОДЫ БОРЬБЫ С НИМ. *Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии*, 8(3), 271–273. извлечено от <https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1625>

9. Ибрагимов, П. С. (2025). Распространение и профилактика воздушно-

10. капельных инфекций среди детей. *Вестник Ассоциации Пульмонологов Центральной Азии*, 8(3), 267–270. извлечено от <https://journals.tnmu.uz/index.php/bapca/article/view/1624>